

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 522 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeovich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Kursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyrov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyrova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati.....	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari.....	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlarini.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы	347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish	364
Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili	369
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
Ortiqov Oybek Abdullayevich	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi	394
Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish.....	403
Abdusaidov S.J.	
Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar.....	409
Do'stov Firuz Ilxomovich	
Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан	414
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	
Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан	420
Салиева Екатерина Сергеевна	
Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....	427
Татьяна Будей	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari	431
Khusanov Nodirbek Djumanazarovich	
Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....	437
Daliyev Xusan Xojakbarovich	
Macroeconomic factors in the development of the banking performance	442
Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	449
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO	453
Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari.....	458
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari.....	468
Davletov Po'lat Torabayevich	
Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni	476
Karimova Muqaddas Zabixullayevna	
Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на "зеленую" экономику.....	479
Раматов Зафарбек Жуманиязович	



Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o'rni	482
Sherkulov Shohruh Erkin o'g'li	
Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari	486
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yo'llari.....	492
Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich	
Topical issues of analytical support for financial resources management of business entities in modern conditions	498
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег	506
Якубова Шамшинур Шухратовна	
Структуризация прибыли предприятия, факторы формирования и выявление резервов её повышения.....	513
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari.....	517
Kadirova Zulayho Abduhalimovna, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	



XORIJIY MAMLAKATLARDA OILAVIY MIGRATSIYA MASALALARI



Kadirova Zulayho Abduhalimovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Phd, Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm kafedrası dotsenti

Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Phd, Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Oilaviy migratsiya global migratsiya tendensiyalarining muhim tarkibiy qismidir, bu nafaqat oilalarni birlashtirish uchun alohida shaxslarning harakati, balki butun oila birliklarining migratsiyasini ham aks ettiradi. Oilaviy migratsiyaning oqibatlari murakkab bo'lib, qabul qiluvchi mamlakatlarda ijtimoiy integratsiya, mehnat bozorlari va demografik o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada oilaviy migratsiyaning nazariy asoslari, uni keltirib chiqaruvchi omillar va uning sabablari, shu bilan birga, oilaviy migratsiyaning asosiy turlari haqida ma'lumotlar tahlil qilindi. Oilaviy migratsiya diasporalar, xalqaro oilaviy vizalar orqali tahlil qilindi. Oilaviy migratsiya bo'yicha xorijiy mamlakatlardagi statistik ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: oilaviy migratsiya, xalqaro mehnat migratsiyasi, diasporalar, green card vizasi, xalqaro oilaviy vizalar, AQSH, Hindiston, Xitoy, Kanada, oilalar birlashuvi, oila shakllanishi.

Abstract: Family migration is an important component of global migration trends, reflecting not only the movement of individuals for family reunification but also the migration of entire family units. The consequences of family migration are complex, impacting social integration, labor markets, and demographic changes in receiving countries.

This article analyzes the theoretical foundations of family migration, the factors that drive it, and its causes, as well as providing information on the main types of family migration. Family migration is examined through the lens of diasporas and international family visas. Statistical data on family migration from foreign countries is also presented.

Key words: family migration, international labor migration, diasporas, green card visa, international family visas, USA, India, China, Canada, family reunification, family formation.

Аннотация: Семейная миграция является важной составляющей глобальных миграционных тенденций, отражая не только движение отдельных лиц для воссоединения семей, но и миграцию целых семейных единиц. Последствия семейной миграции сложны, они влияют на социальную интеграцию, рынки труда и демографические изменения в принимающих странах.

В данной статье анализируются теоретические основы семейной миграции, факторы, её вызывающие, и её причины, а также представлена информация о основных типах семейной миграции. Семейная миграция рассматривается через призму диаспор и международных семейных виз. Также представлены статистические данные по семейной миграции в зарубежных странах.

Ключевые слова: семейная миграция, международная трудовая миграция, диаспоры, виза грин-карты, международные семейные визы, США, Индия, Китай, Канада, воссоединение семьи, создание семьи.



KIRISH

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish davrida mehnat migratsiyasi jarayonlarining dolzarbligi ortsa ortmoqdaki, ammo dunyoda bo'layotgan dolzarb masalalarga qaramay uning muhimligi kun tartibidan tushgani yo'q.

Mehnat migratsiyasi bu – shaxslarning bir davlatdan boshqa davlatga yoki o'zi rezident hisoblangan davlat hududida ishga joylashish maqsadida ko'chishidir. Ishchi kuchi migratsiyasi ko'pgina davlatlar tomonidan ularning migratsiyaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari orqali tartibga solinadi. Bundan tashqari, ba'zi davlatlar tashqi migratsiyani nazorat qilish doirasida chet ellarda o'z rezidentlari uchun imkoniyatlar yaratish bilan faol shug'ullanishadi [1].

Mehnat migrantlari ham yakka tartibda, ham oila bilan harakatlanishlari mumkin. Hozirgi kunga kelib oilaviy migratsiyaning ahamiyati ortib bormoqda.

Mazkur tushunchaning nazariy jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, unga doir yondashuvlarning qanchalik xilma-xilligi va o'ziga xos evolyutsion bosqichlarni bosib o'tganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Oilaviy migratsiya ya'ni "family migration" deganda, o'z oila a'zolari bilan boshqa mamlakat yoki mintaqaga ko'chib o'tayotgan shaxslarning ko'chishi tushuniladi.

Oilaviy migratsiya ko'pincha qabul qiluvchi mamlakatlarda sezilarli demografik o'zgarishlarga olib keladi, jumladan, ayrim yosh guruhlar aholisi, ayniqsa, bolalar va keksa ota-onalarning ko'payishiga olib keladi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy migrantlar boshqa immigrantlarga nisbatan turli xil iqtisodiy jihatdan ustunlikka ega bo'lib, qabul qiluvchi mamlakatda mavjud bo'lgan ta'lim va ish imkoniyatlari kabi omillar ta'sir qiladi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2022-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlariga tashrif buyurgan migrantlarning 40 foizi aynan oilaviy sabablarga ko'ra tashrif buyurgan va ushbu ko'rsatkich 2,2 mln. migrantni tashkil qilgan [2].

Umuman olganda, migratsiya jarayonlarini hisobini olib borish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Jahon miqyosida 281 mln. migrantlar bo'lsa, ularning 60 foizini mehnat migrantlari, 10 foizini bolalar, 12,5 foizini qochoqlar, 12,8 foizini talaba migrantlar va boshqalar tashkil etadi [3]. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu migrantlar ichida oilaviy migrant bo'lganlarni ajratib olish aslida mushkul hisoblanadi. Sababi shuki, mehnat migrantlari ham, talaba migrantlari ham va shunchaki migrant sifatida ko'chganlar ichida ham oilasi bilan ketganlar soni kam emas.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy migratsiya bilan bog'liq tushuncha ilk bor 1978-yilda tadqiqotchi-olim Mincer tomonidan o'rganildi. Tadqiqotchilar oilaviy migratsiya masalalarini turli xil yondashuvlar asosida o'rgandilar. Olimlarning asosiy qismi oilalarni birlashtirish nuqtayi nazaridan Ambrosini va boshqalar [4], Barbiano di Belgiojoso va Terzera [5], Fonseca, Ormond [6], Gonsales-Ferrer [7] kabi olimlar o'rganib chiqdilar.

Oilaviy migratsiyaning salbiy tomonlari tadqiqotchi de Haas Fokkema [8] tomonidan tahlil qilindi.

Hania Zlotnik [9] oilaviy migratsiyada ayollarning o'rni oshib borayotganini (Zlotnik, 1995), Stark va Bloom [10] esa oila va uy xo'jaligi mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti sifatida tahlil qildilar (Stark va Bloom 1985).

Kofman [11] fikriga ko'ra, oilaviy migratsiyada ayollar va bolalarning o'rni katta hisoblanadi (Kofman 2004).

Wall va Bolzman [12] tomonidan oilaviy migratsiyada ayollar ta'sirining kuchayib borayotgani haqida tadqiqotlar olib borildi (Wall & Bolzman, 2013). Tadqiqotchi Grillo [13] qabul qiluvchi mamlakat siyosatida oilaviy migrantlarning markaziy o'rinda ekanliklarini ta'kidladi (Grillo 2008).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tadqiqotning nazariy va empirik usullaridan foydalanildi. Unda so'nggi tadqiqot nashrlari tahlili berilgan, olingan natijalar statistik ma'lumotlar bilan taqqoslangan. Muallif metodologiyasida tizimli yondashuv, kuzatish, taqqoslash, mavhumlashtirish, ideallashtirish va guruhlash usullari qo'llanilgan. Tadqiqot natijalarini vizualizatsiya qilish uchun grafik usulidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaviy migratsiya deganda shaxslar va ularning oila a'zolarining boshqa mamlakat yoki mintaqada istiqomat qilgan oila a'zolariga qo'shilish maqsadida harakatlanishi tushuniladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ko'ra, oilalarning birlashishi migratsiyaning asosiy sabablaridan biridir. Ko'pgina mamlakatlarda immigrantlarning katta qismi oilalarni birlashtirish dasturlari orqali kiradi.

Masalan, AQSh Immigratsiya va fuqarolik qonuni AQSh fuqarolari va qonuniy doimiy yashovchilarga immigratsiya uchun oila a'zolariga homiylik qilish imkonini beradi. So'nggi yillarda oilaviy immigratsiya AQShga qon-



uniy immigratsiyaning taxminan 65 foizini tashkil etdi. Ichki xavfsizlik departamenti ma'lumotlariga ko'ra, oila tomonidan homiylik qilingan muhojirlar, odatda, yaqin qarindoshlar (turmush o'rtoqlari, bolalari va ota-onalari) va boshqa qarindoshlar (aka-uka va opa-singillar va katta yoshli bolalar) ni o'z ichiga oladi [14].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa oilalarni birlashtirish migratsiya siyosatining muhim jihati hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining Oilani birlashtirish direktivasi (2003) a'zo davlatlar bo'ylab oilalarni birlashtirish standartlarini belgilaydi.

Kanadada esa fuqarolar va doimiy yashovchilarga ma'lum oila a'zolarini Kanadaga olib kelish imkonini beruvchi oilaviy sinf homiylik dasturi mavjud. 2021-yilda barcha doimiy yashovchilarning taxminan to'rttdan bir qismi oilaviy homiylik toifalari bo'yicha qabul qilindi [15].

Aynan migrantlar soni ichida oilaviy migrantlarning ulushini bilish uchun xalqaro oilaviy vizalar soni muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali ham jahon miqyosida necha kishi oilaviy migratsiyani amalga oshirganligini bilish mumkin. Oilaviy vizalarni o'rganib chiqishdan avval jahondagi top 5 ta diasporalarni o'rganib chiqishni joiz bildik. Diasporalarning ko'pligi ham o'z o'rnida retsipient mamlakatga donor mamlakatdan qarindoshlari yoki tanishlari oldiga harakatlanib borayotgan oilaviy migrantlarni ko'rish mumkin.

Diaspora tushunchasi o'z vatanidan dunyoning boshqa joylariga tarqalib ketgan, ko'pincha o'z vatani bilan aloqani saqlab qolgan kishilar guruhini anglatadi. Diasporalar deganda oilaviy migratsiyani amalga oshirib, retsipient mamlakatda qolgan va donor mamlakat bilan ko'p hollarda aloqani saqlab qolgan aholi qatlami tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan, dunyodagi eng katta va muhim beshta diasporani o'rganib chiqdik.

1-jadval. Dunyodagi top beshta diasporalar.

t/r	Diasporalar	Ta'rif
1	Xitoy	Xitoy diasporasi dunyodagi eng yirik diasporalardan biri bo'lib, Xitoydan tashqarida 50 milliondan ortiq xitoy millatiga mansub odamlar yashaydi. Janubi-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika va Yevropada topish mumkin. Asosiy jamoalar AQSh, Kanada, Avstraliya, Malayziya va Indoneziya kabi mamlakatlarda mavjud.
2	Hindiston	Hindiston diasporasi yana bir katta jamoa bo'lib, Hindistondan tashqarida 32 millionga yaqin hind millatiga mansub odamlar istiqomat qiladi. Diaspora, asosan, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya hamda Yaqin Sharq va Afrikaning turli mamlakatlarida to'plangan. Hindiston mehnat, ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlar uchun uzoq vaqt migratsiya tarixiga ega.
3	Meksika	Meksika diasporasi, asosan, Qo'shma Shtatlarda joylashgan bo'lib, taxminan 12 millionni tashkil etadi. Bu migratsiyaga turli omillar, jumladan, iqtisodiy imkoniyatlar, oilalarning birlashishi va tarixiy aloqalar sabab bo'ladi.
4	Rus diasporasi	Rus diasporasi katta ahamiyatga ega, butun dunyo bo'ylab 10 millionga yaqin kishi. 1990-yillar boshida Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ko'plab ruslar ko'chib ketishdi. Asosiy aholini AQSh, Germaniya, Isroil va sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlarida topish mumkin.
5	Braziliya	Braziliya diasporasi chet elda, xususan, AQSh, Portugaliya va Yaponiyada yashovchi 3 millionga yaqin odamni o'z ichiga oladi.

Manba: Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Bu diasporalar mustahkam jamoaviy aloqalar, madaniy asrab-avaylash va o'z mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyatiga qo'shgan salmoqli hissasi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ular o'zlarining kelib chiqish mamlakatlari bilan pul o'tkazmalari, madaniy almashinuvlar va hamkorlikning boshqa shakllari orqali aloqalarni saqlab turadilar.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy 5 ta mamlakatda 107 mln. kishi oilaviy ko'chib ketib istiqomat qilyapti. Bu, albatta, katta ko'rsatkich hisoblanadi.

Aynan oilaviy migratsiya masalalarini tahlil qilar ekanmiz, ular sonini hisoblashda bizga xalqaro oilaviy vizalarning sonini bilish muhim hisoblanadi. Tadqiqot davomida AQShga green card (yashil viza) yutganlarni ko'rib chiqdik. Ma'lumki, green card asosida oilaviy migratsiya amalga oshiriladi.

**2-jadval. AQSH mamlakatiga yiliga o'rtacha oilaviy viza (green card) oladigan mamlakatlar ro'yxati**

t/r	Mamlakat nomi	Green card soni
1	Meksika	100 000
2	Hindiston	50 000 - 60 000
3	Xitoy	30 000 – 40 000
4	Filippin	25 000 -30 000
5	Vyetnam	20 000
6	Dominikan Respublikasi	20 000

Manba: Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu 2-jadvalda keltirilgan oilaviy migrantlar AQShga oilaviy ko'chib ketishadi. Bunga ko'pincha quyidagilar kiradi. Meksika, Hindiston va Filippin AQShda yashil karta olgan oilaviy migrantlar soni ko'p bo'lgan yetakchi davlatlar qatoriga kiradi.

Oilaviy migratsiyaning sabablariga ko'ra bir nechta keng tarqalgan turlari mavjud. Xususan:

1. Oilani birlashtirish migratsiyasi (Family Reunification Migration) – bu avval boshqa davlatga ko'chib kelgan oila a'zolari o'z qarindoshlari bilan qo'shilishga intilishganda sodir bo'ladi. Bunga ko'pincha immigrantlarga turmush o'rtog'i, farzandlari yoki boshqa qarindoshlarini mamlakatga olib kirishga ruxsat beruvchi oilalarni birlashtirish siyosati yordam beradi.

2. Oila bilan mehnat migratsiyasi (Labor Migration with Family) – bu turdagi shaxslar ishlash uchun migratsiya qiladilar va o'zlari bilan yaqin oila a'zolarini olib keladilar. Bu qurilish, qishloq xo'jaligi yoki xizmat ko'rsatish kabi sohalardagi mehnat migrantlari orasida keng tarqalgan.

3. Qochoq yoki boshpana izlovchi migratsiya (Refugee or Asylum-Seeking Migration) – oilalar mojaro, ta'qib yoki zo'ravonlikdan qochganlarida birga ko'chib ketishlari mumkin. Bu boshqa davlatdan boshpana izlash uchun xavfli vaziyatlardan qochib qutulgan butun oilalar yoki oila a'zolarini o'z ichiga olishi mumkin.

4. Doimiy rezidentlar migratsiyasi (Permanent Resident Migration) – oilalar oila asosidagi immigratsiyaga ruxsat beruvchi turli vizalar yoki dasturlar orqali doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ko'chib o'tishlari mumkin.

5. Ta'lim migratsiyasi (Education Migration) – ba'zi oilalar o'z farzandlariga yaxshiroq ta'lim olish imkoniyatini berish uchun ko'chib o'tadilar. Bu oilalar ko'pincha ta'lim tizimi yaxshi bo'lgan mamlakatlarga ko'chib o'tadigan boshlang'ich, o'rta yoki oliy ta'lim uchun migratsiyani o'z ichiga olishi mumkin.

6. Farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi (International Adoption Migration) – oilalar boshqa mamlakatlardan bolalarni asrab olishni o'z ichiga olgan migratsiya bilan shug'ullanishi mumkin, bu esa bolalarning boshqa millatdagi yangi oilalariga qo'shilishlariga imkon beruvchi qonuniy oilaviy kelishuvga olib kelishi mumkin.

7. Oila bilan mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiya (Seasonal or Temporary Migration with Family) – ba'zi oilalar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sharoitida mavsumiy migratsiya bilan shug'ullanadilar, ular ma'lum mavsumlarda vaqtincha ishlash uchun ko'chib o'tadilar va keyin o'z mamlakatiga yoki mintaqasiga qaytadilar.

8. Davlatlararo nikoh (Inter-country Marriage) – oilalar transchegaraviy nikohlar natijasida migratsiya qilishlari mumkin, bu yerda sheriklardan biri boshqa mamlakatdan bo'ladi. Bu tur ko'pincha oilani birlashtirish jarayonlariga olib keladi, chunki er-xotin qayerda yashashni hal qiladi.

2022-yildagi XMT ma'lumotlariga ko'ra, jami 2,2 mln. kishi oilasi bilan migratsiyani amalga oshirgan kishilarning 1,58 mln.tasi birinchi va ikkinchi turdagi migrantlar bo'lib, 593 043 kishi oilasi bilan hamrohlikda migratsiyani amalga oshirgan [2]. Oilaviy migratsiyani amalga oshirishda bir nechta omillar turtki bo'lib xizmat qiladi.

Oilaviy migratsiya global migratsiya tendensiyalarining muhim jihati bo'lib, insonlarning ko'chib o'tishga qaror qilishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotimiz natijasida aytish mumkinki, oilaviy migratsiya migratsiyaning turli turlarini, jumladan, oila a'zolari, masalan, turmush o'rtog'lar, bolalar yoki ota-onalar o'z oila a'zolariga qo'shilish uchun ko'chib o'tadigan oilani birlashtirishni o'z ichiga olishi mumkin. Oilaviy migratsiya tabiiy jarayon bo'lib, yillar kesimida uni chuqur tahlil qilish darkorligi dolzarb masalalardan biri ekanligini ta'kidlash joiz.

Global migratsiya rivojlanishda davom etar ekan, oilaviy migratsiya dinamikasini tushunish ijtimoiy hamjihatlik, iqtisodiy rivojlanish va migrantlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan siyosatlarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, oilaviy migratsiya migrantlar huquqlari, migratsiya siyosatlarining samaradorligi va jo'natuvchi hamda qabul qiluvchi davlatlar uchun kengroq ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlar haqida muhim savollarni ko'taradi.



Oilaviy migratsiya ko'plab ijobiy jihatlarga ega bo'lib, oilalarning iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilashga, yaxshiroq ish sharoitlari va yashash sharoitlari, rivojlangan mamlakatda ta'lim olish imkoniyati, o'z navbatida, yosh avlodning rivojlanishiga yordamini ta'kidlash muhim. Shu bilan birgalikda, yaxshiroq tibbiy yordam olish imkoniyatlarining oshishi, yangi tillarni o'rganish imkoniyati, yangi ko'nikmalar va tajribalar olish imkoniyati, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi kabi ijobiy jihatlari bilan birgalikda salbiy jihatlari ham ko'rsak.

Oilaviy migratsiyaning salbiy jihatlari qiyinchiliklar, muammolar va moslashish jarayonlarini keltirib chiqarishi mumkin. Yangi joyga ko'chish natijasida oilalar o'z umumiy do'stlaridan va yaqinlaridan, oilaviy aloqalaridan ajralishi, ushbu izolyatsiya, kelgusida ijtimoiy qiyinchiliklar va depressiyaga sabab bo'lishi, yangi mamlakat yoki mintaqa madaniyatiga moslashish jarayoni qiyin kechisi, farzandlar va kattalar o'rtasida madaniy tushunmovchiliklar yuzaga kelishi, yangi joyda yangi tilni o'rganish zaruriyati, oilaning barcha a'zolari uchun ko'plab to'siqlar va qiyinchiliklarga olib kelishi, tilni bilmaslik, ta'lim va ishga joylashishda qiyinchilik tug'dirishi, ish topish qiyin kechishi, donor mamlakatning iqtisodiy sharoitlari o'zgaruvchan bo'lsa yoki malakali ishchilar talab etilmasligi oilalarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi va xizmatlari haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lmasslik, zarur tibbiy yordam olishda muammolarga olib kelishi, migratsiya jarayoni oila a'zolarini psixologik jihatdan qo'rquv, tashvish, uyqusizlik va depressiyasi shaklidagi stress va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oilaviy migratsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qancha taklif va tavsiyalar berish mumkin. Ushbu tavsiyalar oilaning har bir a'zosining farovonligini oshirish, yangi muhitga moslashishni osonlashtirish va migratsiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi:

- moliyaviy masalalarni rejalashtirish, ya'ni yangi joyda yashash, oziq-ovqat va ta'lim xarajatlarini aniqlashtirib olish va favqulodda holatlar uchun moliyaviy zaxiraga ega bo'lish kerak.

- ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, ya'ni mahalliy jamoalarni o'rganish: Yangi joyda mahalliy jamoalar va guruhlar bilan tanishish.

- sog'liqni saqlash va ta'lim, ya'ni yangi joyda tibbiy xizmatlar, shifokorlar va dorixonalar haqida ma'lumot olish dardkor.

- psixologik tayyorgarlik, ya'ni migratsiya jarayoni ruhiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Zarur hollarda psixologik yordamdan foydalanish kerak.

Ushbu takliflar oilaviy migratsiya jarayonini yaxshilash, yangi joyda oila a'zolari uchun qulay va muvaffaqiyatli hayot yaratishga yordam beradi. Har bir oilaning vaziyatiga ajratilgan yondashuv zarur bo'lib, oilalar o'zlarining maxsus ehtiyojlariga mos ravishda bu tavsiyalardan foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kadirova Z. A. & Gazieva S. S. (2021). Economical Theories Of International Labor Migration. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 1(3), 15–23.
2. Ambrosini M., Bonizzoni P. & Triandafyllidou A. (2014). Family migration in southern Europe: Integration challenges and transnational dynamics: An introduction. *International Review of Sociology*, 24(3), 367–373.
3. Barbiano di Belgiojoso E. & Terzera L. (2018). Family reunification: Who, when, and how? Family trajectories among migrants in Italy. *Demographic Research*, 38, 737–772.
4. Fonseca M. L. & Ormond M. (2008). Defining 'family' and bringing it together: The ins and outs of family reunification in Portugal. In *The family in question immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe* (pp. 89–111). IMISCOE-AUP.
5. González-Ferrer A. (2011). Spousal reunification among recent immigrants in Spain: Links with undocumented migration and the labour market. In *Gender, generations and the family in international migration* (pp. 193–218).
6. De Haas H. & Fokkema T. (2010). Intra-household conflicts in migration decisionmaking: Return and pendulum migration in Morocco. *Population and Development Review*, 36, 541–556.
7. Zlotnik H. (1995). Migration and the family: The female perspective. *Asian and Pacific Migration Journal*, 4(2–3), 253–271.
8. Stark O. & Bloom D. (1985). The new economics of labor migration. *American Economic Review*, 75, 173–178.
9. Kofman E. (2004). Family-related migration: A critical review of European Studies. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 30(2), 243–262.
10. Wall K. & Bolzman C. (2013). Mapping the new plurality of transnational families: A life course perspective. In *Transnational families, migration and the circulation of care* (pp. 77–93). Routledge.

Internet resurslari

1. Key-migration-terms. IOM UN Migration//. <https://www.iom.int/key-migration-terms#Migration>
2. IOM GMDAC 2023, migrationdataportal.org.
3. Grillo, R. (Ed.). (2008). *The family in question. Immigrant and ethnic minorities in multicultural Europe* (IMISCOE Research). University of Amsterdam Press.
4. Gazieva S. 2020. Digitalization of labor migration is a new agenda for migrants' contributions to societies of the world., *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science* 4, 84, 208-215.
5. Bakhtiyor Islamov, Zulaykho Kadirova, Sulkhiya Gaziyeva. Digitization measures in the regulation of labor migration processes in Uzbekistan // ACM, New York, NY, USA, 328-337 pp.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

